

57449
4-3
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



BARNO UBAYDULLAYEVA

**ETNOLOGIK VA ANTROPOLOGIK
TAFAKKUR TARIXI**

572,9;69,922

U-13

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BARNO UBAYDULLAYEVA

ETNOLOGIK VA ANTROPOLOGIK TAFAKKUR TARIXI

O'QUV QO'LLANMA



Toshkent
"Ma'rifat"

2024

UO'K: 572.9(091):159.922.4(075.8)

KBK: 63.5ya73

U 13

Ubaydullayeva Barno. Etnologik va antropologik tafakkur tarixi.

O'quv qo'llanma. –T.: "Ma'rifat", 2024. 196 bet.

O'quv qo'llanma "60230500 – Antropologiya va etnologiya" bakalavriat ta'lif yo'naliishi talabalariga mo'ljallangan.

O'quv qo'llanmasida etnografiya va antropologiyaga doir ilk bilimlar shakllanishi, etnologiya va antropologiyaning fan sifatida tarkib topishi va evolyutsionizm, tarixiy materialistik nazariya, irqchilik nazariyasi, etnologiyada etnopsixologik yo'naliish kabi mavzular o'rinn olgan. Bundan tashqari, qo'shimcha ravishda turli nazariyalarga oid ma'lumotlar qiyosiy o'r ganish uchun berilgan.

UO'K: 572.9(091):159.922.4(075.8)

KBK: 63.5ya73

U 13

Taqrizchilar:

C.M.Anarkulov – "Antropologiya va etnologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD

I.M.Xo'jaxonov – Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining bosh ilmiy xodimi, t.f.n.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Milliy Universitetining 2023 yil "31" maydagi 10 -sonli buyrug'i asosida nashr etishga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-765-88-9

© "Ma'rifat" nashriyoti, Toshkent, 2024 y.

2024/122

55

JZMU
AXBORO'N RESURS
MARKAZI

SO‘ZBOSHI

O‘tgan asrda qator yangi nazariyalar va ilmiy konsepsiyalarning yaratilishi antropologiya va etnologiyaning fan sifatidagi o‘mini mustahkamlashi bilan bir qatorda, mazkur fan sohalarining bir-biri bilan aloqadorligini, ko‘p masalalarda o‘zaro chambarchas bog‘liqligini ham isbot qildi. Hozirgi paytda dunyo olimlari orasida antropologiya va etnologiyaning obyekti, predmeti hamda ular o‘rtasidagi chegaralar belgilanishiga doir baxsmunozaralar o‘z yakuniga etmagan bir sharoitda ham etnologik va antropologik tafakkur rivojlanishda davom etmoqda.

Ma’lumki, so‘nggi yillarda oliy ta’lim sifatini oshirish, uni ilg‘or xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish borasida ko‘p tadbirdilar amalga oshirilmoqda¹. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirdilar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli Qarorida Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini tubdan takomillashtirish, zamonaviy o‘quv, o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minalashga alohida urg‘u berilgani² beziz emas. Zero, O‘zbekiston fani ham dunyo fanining tarkibiy qismi bo‘lishi va u bilan bog‘liq tarzda rivojlanishi lozim. Shunday ekan, etnologiya va antropologiya sohalarining bo‘lg‘usi mutaxassislari antropologiya va etnologiya bo‘yicha nazariyalarni yaxshi bilishi zarur.

Mamlakatimizda ta’lim sohasidagi islohotlar negizida etnolog va antropolog mutaxassislarni tayyorlash borasida dastlabki qadamlar qo‘yildi va ko‘p ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Milliy universitetida “Antropologiya va etnologiya” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi, magistratura mutaxassisliklarining ochilishi va kafedra hamda amaliy laboratoriyaning tashkil etilishi shular jumlasidandir.

Endi galdegisi vazifa o‘qitilayotgan fanlarning zarur o‘quv adabiyotlari bilan ta’minalash bo‘ladi. Garchi etnologiya va antropologiyada alohida nazariyalar bo‘yicha ko‘plab adabiyotlar (ularning deyarli barchasi xorijiy tillarda) mavjud bo‘lsa-da, ammo shu paytgacha etnologik va antropologik nazariyaga bag‘ishlangan alohida o‘quv qo‘llanma yo‘q edi. Shu o‘rinda aytish lozimki, “Etnologik va antropologik tafakkur tarixi” fani ham nazariyalarga yangicha yondashuvda shakllantirilgan bo‘lib, shu paytgacha

¹ Bu haqida qarang: Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi. Toshkent, 21.12.2022 // <https://www.xabar.uz/jurniyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-zbekiston-xalqi>

² Respublika Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirdilar to‘g‘risida”gi Qarori. Toshkent, 05. 06. 2018 // <https://xs.uz/uzkr/post/oliy-ta'lim-muassasalarida-ta'lim-sifatini-oshirish-va-ularning-mamlakatda-amalga-oshirilayotgan-keng-qamrovli-islohotlarda-faol-ishtirokini-ta'minalash-bo'yicha-qo'srimcha-chora-tadbirdilar-to'g'risida>

o'tilgan etnologiya yoki antropologiya fanlaridan farq qiladi. Ushbu fan aynan nazariyalarning mohiyatiga e'tibor qaratilishi bilan ajralib turadi. Qolaversa aynan shu fan bo'yicha nafaqat O'zbekiston balki, yaqin xorijda ham maxsus qo'llanma mavjud emasligini qayd etish kerak.

"Etnologik va antropologik tafakkur tarixi" o'quv qo'llanmasida etnografiya va antropologiyaga doir ilk bilimlarning paydo bo'lishi, buning zarurati, obyektiv shart-sharoitlar; antropologiya va etnologiya fanlarining tadqiqot predmetlariga oid qarashlar; qadimgi manbalarda xalqlar va ularning urf-odatlariga oid, Qadimgi Sharq va antik davrda xalqlar haqidagi ma'lumotlar; O'rta asrlarda etnografik va antropologik ma'lumotlar, xususan, arab sayohatchilar va Plano Karpini, Rubruk, Morko Polo kabi evropalik olimlarning sayohatlarida etnografik bilimlarning to'planishi; ularning etnologik hamda antropologik dunyoqarashning rivojlanishiga qo'shgan xissasi; XIV asr va XV asr boshlarida etnografik va antropologik bilimlar holati; etnologiya va antropologiyaning fan sifatida tarkib topishi; tarixiy materialistik nazariya; biologik oqim va irqchilik nazariyasi; etnologiyada etnopsixologik yo'nalish kabi mavzular o'rinni olgan.

Bundan tashqari, talabalarning nazariyalarga oid dunyoqarashini kengaytirish va antropologik bilimlarini oshirish uchun qo'shimcha ravishda turli nazariyalarga oid ma'lumotlar qiyosiy o'rganish uchun berilgan. Xususan, evolyutsion nazariyani tushunish uchun diffuzionizm nazariyasi; tarixiy materializmning mohiyatini chuqur anglash uchun funksionalistik nazariya; biologik yoki irqchilik nazariyasi mazmunini kengroq tavsiflash uchun F.Boasning tarixiylik konsepsiysi; etnopsixologik yo'nalishdagi nazariyalarni tahlil qilish hamda mazmunini tushunib etish uchun Z.Freydning psikoanaliz nazariyasi qiyosiy o'rganish uchun keltirildi. Chunki, psikoanaliz nazariyasi mohiyatini anglamasdan, AQShdagi neofreydizm maktabi konsepsiyanlarini tushunib bo'lmaydi.

Mazkur o'quv qo'llanma etnologiya va antropologiya bo'yicha turli davlatlarida yaratilgan qo'llanma va darsliklar hamda boshqa adabiyotlar, internet resurslaridan foydalаниб tayyorlandi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, "Etnologik va antropologik tafakkur tarixi" mavzusida alohida darslikning mavjud emasligi ushbu o'quv qo'llanmaning dolzarbligini isbotlashi bilan bir vaqtida, bunday o'quv qo'llanma yaratishning murakkabligini ham asoslaydi. Shunday ekan, bu ilk tajribada kamchiliklar bo'lishi ehtimoldan holi emas. "Etnologik va antropologik tafakkur tarixi" o'quv qo'llanmasi kelgusida ham rivojlantirilib borilishini ta'kidlagan holda, mazkur o'quv qo'llanma nafaqat "Antropologiya va etnologiya" yo'nalishi talabalari balki, shu bilan birga barcha ijtimoiy-gumanitar soha mutaxassislari uchun qiziqarli bo'ladi, ularning bu boradagi bilimlarini oshirishga xizmat qiladi, deb umid qilamiz.

1-MAVZU. ETNOGRAFIYA VA ANTROPOLOGIYAGA DOIR ILK BILIMLARNING PAYDO BO'LISHI

Reja:

- 1. Antropologiya va etnologyaning tadqiqot predmeti**
- 2. Qadimgi manbalarda xalqlar va ularning urf-odatlariga oid ma'lumotlar kelishi**
- 3. Qadimgi Sharq va antik davrda xalqlar haqidagi ma'lumotlar**

Tayanch so'zlar: antropologiya, inson, madaniyat, xalq, urf-odat, etnologiya, etnos, ma'lumotlar, fan

1. Antropologiya va etnologyaning tadqiqot predmeti

Antropologiya insonlarni ilmiy tomonidan o'r ganuvchi, kishlar orasida umumiylig va o'ziga xoslikni davriy hamda hududiy jihatdan tadqiq etuvchi fandir.

Antropologiya keng qamrovli fan bo'lib, u inson holatining barcha jihatlari: o'tmishi, hozirgi kuni va kelajagini o'r ganishda namoyon bo'ladi; shuningdek, odamning biologik jihatlari, jamiyatdagi o'mi, tili va madaniyati ham uning e'tibori doirasidadir¹. Antropologiya, shu bilan birga qiyosiy va madaniyatlaro tadqiqotlarni ham amalga oshiradi. Bunda turli xalqlar va zamонlarga oid ma'lumotlar tartibli ravishda qiyoslanadi. Antropologiya madaniy, ijtimoiy, arxeologik, biologik, lingvistik, psixologik, pedagogik, tibbiy, kognitiv antropologiya va boshqa shu kabi yo'naliishlarga bo'linib tarmoqlanib ketgan.

Madaniyat insonning sharoitga moslasha olishida va faoliyat olib borishida birlamchi omil bo'lib hisoblanadi. Madaniyat insonlarning e'tiqodi, urf-odatlari va marosimlari, xulq-atvorlarini anglagan holda saqlanib qolishidir. Madaniy antropologiya hozir va yaqin o'tmishda mavjud bo'lgan madaniy tafovutlarni o'r ganadi.

Arxeologiya moddiy ashyolar qoldiqlariga asoslangan holda qadimiy faoliyatlarni tasavvuran qayta tiklaydi, biologik antropologiya inson suyagi va uning qoldiqlari, irlisiyati va tana tuzilishi hamda o'sishini o'r ganadi.

¹ Tarixiy antropologiya. Ma'ruza materiallari / <https://fayllar.org/iv-ma'ruza-materiallari-1-mavzu-tarixiy-antropologiyaga-kirish.html>

Lingvistik antropologiya esa ijtimoiy omillar va vaqt ta'sirida nutqning o'zgarishini tadqiq qiladi va h.

Odatda antropologiyaning ilmiy o'rganish umumiy antropologiya yoki dala antropologiyasi, deb nomlangan bo'lib to'rt yo'nalishdagi bo'limlarni o'z ichiga oladi. Bular: ijtimoiy-madaniy, arxeologik, biologik va lingvistik antropologiya (ijtimoiy-madaniy antropologiya qisqacha madaniy antropologiya, deb nomlanadi).

Antropologiyani o'rganish qismalaridan biri bo'lgan madaniy antropologiya eng yirik bo'limni tashkil qiladi.

Shimoliy Amerikaning mahalliy xalqlari madaniyati va tarixiga bo'lgan qiziqish natijasida bir asrdan oshiqroq vaqt oldin Amerika antropologiyasi yuzaga keladi. Mahalliy amerikaliklarning kelib chiqishi va bir-birlaridan farqli tomonlariga bo'lgan qiziqish ularning madaniyati, marosimlari, ijtimoiy hayoti, tili va jismoniy jihatlarini o'rganishga sabab bo'ldi. Antropologlar hozir ham mahalliy amerikaliklarning kelib chiqishi va Yangi dunyoga qanday ko'chishlar natijasida kelib qolganliklari xususida bosh qotirmoqdalar. Ularni o'yantirib kelayotgan savollardan yana biri mahalliy amerikaliklarning bir-birlari bilan va osiyoliklar bilan qanday lingvistik, madaniy va biologik bog'liqliklar mavjudligi masalasidir¹. Nomlari ko'rsatib o'tilgan bo'limlarning kiritilish sabablari qatoriga yana biologiya (masalan irq) va madaniyat o'rtaсидаги bog'liqlikka bo'lgan qiziqish ham bor. O'tgan asr o'rtalarida AQShlik antropolog Rut Benedikt dunyo tarixida bir madaniyatning shakllanishida turli irq vakillari ishtirok etishini va birgina irq yoki birgina madaniyat doirasiga taalluqli bo'lmasligi mumkinligini ta'kidlab o'tgan edi.

Antropologiyaning ilmiy va amaliy kabi ikki aspekti bor. Amaliy antropologiyada ijtimoiy muammolar aniqlanib ularni echishga, harakat qilinadi. Antropologiya yana boshqa ko'plab sohaiar bilan aloqador bo'lib, ular qatoriga tabiiy va ijtimoiy fanlarni kiritish mumkin. Bu aloqadorlikni tabiiy fan sifatida biologiya va ijtimoiy fan sifatida sotsiologiya fanlarining o'zaro munosabati misolida ko'rish mumkin. Antropoglarning madaniyatlararo masalalarga bo'lgan qarashlari iqtisod, siyosat, psixologiya, san'at, musiqa va adabiyot kabi sohalarda ham o'z ifodasini

¹ Tarixiy antropologiya. Ma'ruza materiallari / <https://fayllar.org/iv-ma'ruza-materiallari-1-mavzu-tarixiy-antropologiyaga-kirish.html>

topadi. Antropolog va tarixchilar tarixiy va madaniy hodisalarga tarixiy va madaniy jihatdan to‘g‘ri baho berishda hamkorlik qiladilar.

Antropologiya inson zoti va uning ajdodlarini tadqiq qilganligi uchun ham keng qamrovli fan hisoblanadi. Shuningdek, antropologiya qiyosiy va umumiy fandir. Ushbu o‘rinda umumiyligi deganda insonning umumiyligi ahvoli tushuniladi: uning o‘tmishi, buguni va kelajagi; shuningdek, biologik jihat, tili va madaniyati – bularning barchasi umumiyligini keltirib chiqaradi. Antropologlar sanoatlashmagan va g‘arbgan xos bo‘lmagan jamiyatlarni ham o‘rganishadi¹. Shu bilan birga sanoatlashmagan odamlarni o‘rganish bilangina kifoyalanmaydi. Ya’ni undan ham muhimroq bo‘lgan narsalarni, chunonchi qadimiy va zamонави, oddiy va murakkab jamiyatlarni ham qiyosiy o‘rganadi.

Antropologiya doimiy ravishda bir madaniyat urf-odatlarini mutlaqo boshqacha bo‘lgan ikkinchi bir madaniyat urf-odatlari bilan qiyoslash natijasida madaniyatlararo ilmiy qarashni yaratib beradi.

Etnologiya (*xalqlarning kelib chiqishini o‘rganuvchi fan*) er yuzida yashaydigan barcha xalqlarni o‘rganadi. Ma’lumki, bugungi kunda dunyo aholisi 8 mlrd kishidan oshdi. Bugunga qadar etnologiya haqida XIX asrga qadar shakllangan faqat antik davrga mansub xalqlar, qadimgi, arxaik jamiyatlar, taraqqiyoti jihatidan orqada qolgan etnik jamoalarni o‘rganuvchi fan – degan eski tasavvurlar saqlangan. Lekin ushbu fikr butunlay noo‘rin bo‘lib, endilikda etnologiyada yuksak rivojlangan millatlar bilan bir qatorda, Tinch okeanining uzoq orollarida yashayotgan ko‘p sonli bo‘lmagan etnik jamoalari ham tadqiq qilinmoqda.

Bugungi etnologiyaning dolzARB masalalari:

- Xalqlarning etnik kelib chiqishi, etnogenezi;
- Xalqlarning xalq sifatidagi taraqqiyoti yoki etnik tarixi;
- Etnoslar moddiy va ma’naviy madaniyatining (qishloqlar, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar, taomlar, xalq og‘zaki ijodi yoki folklor, xalq san’ati) o‘ziga xos xususiyatlari;
- dunyo dirlari va diniy tasavvurlar, udumlar, urf-odatlar, marosimlar, bayramlar va hokazolardir.

¹ Tarixiy antropologiya. Ma’ruza materiallari / <https://fayllar.org/iv-ma’ruza-materiallari-1-mavzu-tarixiy-antropologiya-qa-kirish.html> (12.06.22)

Etnologlar odatda, an'anaviy, o'tgan ajdodlaridan meros qolgan, xalq madaniyatning, eng avvalo dehqonlar (qishloqliklar)da saqlangan elementlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratishadi. Hatto zamonaviy shahar aholisini o'rganganda ham etnolog an'anaviy udumlar, urf-odatlar, moddiy va ma'naviy madaniyatning qanday jihatlari saqlanganligini aniqlashga urinadi.

Ta'kidlab o'tilganidek, ayni paytda etnologiya faqat etnik jamiyatlarning o'tmishi, uning bugungi kunga qadar saqlangan unsurlarininga o'rganish bilan chegaralanmaydi. Hozirgi paytda etnologiyani xalqlarning zamonaviy hayoti ham qiziqtiradi. Zamonaviy etnoslarning hayot faoliyati so'nggi asrda vujudga kelgan qator yordamchi fanlar ishtirokida tadqiq qilinadi. Xususan, etnik sotsiologiya turli etnoslarning ijtimoiy toifalarini, sinflar, tabaqalar, ijtimoiy birlashmalarni o'rganadi. Etnik ekologiya etnik jamiyatlarning tabiiy-geografik muhit bilan qanchalik o'zaro bog'liqligini tadqiq etadi. So'nggi yillarda dunyoda u yoki bu etnosning istiqboldagi taraqqiyoti, etnoslararo munosabatlarning qanday yo'nalishda rivojlanishi haqida istiqbol rejalarining ahamiyati oshib bormoqda.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, etnologiya fani xalqlar va etnoslar haqida qayg'uruvchi fandir. Etnologlar zamonaviy insoniyatning asrlar davomida to'plagan etnik va madaniy xilma-xilligini imkon darajasida saqash tarafdarlaridir. Etnologiya – xalqshunoslik ijtimoiy, shuningdek tarix fani qatoriga kirib, bir qancha ilmiy sohalar: geografiya, lingvistika, folklorshunoslik, arxeologiya, san'atshunoslik va boshqalar bilan uzviy bog'liqdir.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilib aytish mumkinki, "Etnologik va antropologik tafakkur tarixi" fanining predmeti dunyo xalqlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan etnologik va antropologik tadqiqotlar va shu bo'yicha ilgari surilgan nazariya, konsepsiylar, turli mamlakatlarda etnologik muktablar taraqqiyoti hamda ularning jamiyatdagi o'rni masalasidir.

2. Qadimgi manbalarda xalqlar va ularning urf-odatlariga oid ma'lumotlarning kelishi.

Ilk etnologik va antropologik ma'lumotlar bizga Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari yodgorliklari orqali etib kelgan. Bobilliklar, ossuriar,

misrliklar odamlarning tashqi qiyofalari, kiyimlari haqidagi ko‘plab tasvirlarni o‘zlarining tosh bitiklarida qoldirganlar. Yunon-rim dunyosi ham o‘zidan keng hajmdagi haqiqat tavsiflangan etnografik ma’lumotlar bilan birgalikda, ayrim xayoliy, ro‘yo bo‘lgan qaydlarni ham qoldirganlar.

Qadimgi Misr. Qadimgi xalqlar orasida yozuv paydo bo‘lgan birinchi davrlardan boshlab, qo‘sni davlatlar xalqlari haqidagi ba’zi ma’lumotlar yozma yodgorliklarda o‘z aksini topa boshladи. Qadimgi qirollik davriga oid eng qadimgi Misr matnlarida – “Palermo toshidagi” yilnomada, qirollar va zodagonlarning qabrlaridagi yozuvlarda misrliklar Nil daryosi bo‘yidagi mamlakatlar (Kush, Nam va boshqalar) hatto Punt mamlakati (Somali) aholisi bilan va shimoli-sharqiy yo‘nalishda – Suriya, Falastin, Arabiston yarimoroli qabilalari bilan tanish bo‘lganligi to‘g‘risida dalillar mavjud. To‘rtinchи sulola piramidalari ichki devorlarida turli irqiy toifadagi odamlar – liviyaliklar, qora tanlilar va b. – qo‘llarida Fir‘avnga olib kelgan o‘z mamlakatlarining mevalari, sovg‘alar yoki o‘lponlari bilan birgalikda tasvirlangan.

O‘rta Podsholik davriga tegishli rasmiy va qabr toshlari yozuvlaridan tashqari, ba’zi badiiy matnlar ham topilgan. Masalan, ko‘p yillar Osiyo mamlakatlарida, asosan, Shom o‘lkasi (Suriya)da og‘izdan og‘izga o‘tib yurgan “Sinuxet sarguzashtlari” (mil. av. XX asr) shular jumlasidandir. Yangi Podsholik davrida, XVIII-XX asr sulolalari podshohlarini bosqinchilik yurishlari davrida misrliklarni yanada kengroq xalqlarga – g‘arbda Liviyanidan tortib sharqda Kichik Osiyoga qadar bo‘lgan mamlakatlar aholisiga duch keldi. Qirollarning g‘alabani tasvirlagan yozuvlarida bu davlatlarning fath qilinganligi, mamlakat aholisi asirga olinganliklari va boshqalar haqida yozilgan¹. Shuningdek, bir xil xalqaro diplomatik til – bobil tili qo‘llanilganligi ko‘rsatilgan. Shubhasiz, Qadimgi Sharq mamlakatlari xalqlari bir -birlari haqida bilishgan.

3. Qadimgi Sharq va antik davrda xalqlar haqidagi ma’lumotlar.

Qadimgi Mesopotamiya yodgorliklarda joylashgan xalqlar haqidagi ma’lumotlar deyarli bir xil rasmiy ohangga ega. Bular, asosan – qadimgi shumerlardan ossuriylargacha, bosib olingan mamlakatlarda zafarnomalar va shohlarning yilnomalarini o‘z ichiga oladi. Masalan, Ossuriya podshohi

¹ Токарев С.А. Истоки этнографической науки (До середины XIX в.) - Москва: Наука, 1978. - С. 7.

Sinaxxeribning harbiy yilnomasidan (mil. av. 691 y.) olingan parchada shunday ma'lumot keltiriladi: "Xojam Ashshur (Bobil podshosi) kuchi biian 75 shahar, mustahkam qal'alar va 420 kishilik qishloqlarni qurshab olib zabit etdim, o'lja qildim. Uruk, Nippur, Kishe, Xursagkalamm, Kut, Sipparo shaharlaridagi arab, aramelar, xaldelarni gunohkor shahar (Bobil) aholisi bilan o'lja qildim"¹. Shu kabi maqtovlarga to'la zafar yozuvlarini ahamoniylarning podshohlari ham yozdirgan. Shuningdek, ular bosib olingan hamda bo'ysundirilgan mamlakatlar va xalqlarni nomlarini keltirishgan.

Injil kitoblarining tarixiy rivoyatlarida, ayniqsa yahudiylarning qo'shni xalqlarga qarshi olib borgan urushlari haqidagi hikoyalarda yaqin xalqlardan tashqari, ulardan ancha uzoqroqda yashagan xalqlarning nomlari keltirilgan. Unda kan'onliklar, filistlar, jebusitlar, edomitlar, amaliklar, midyanliklar, mo'ablar, ammonliklar, amorliklar, bobilliklar, elamliklar, arablar, sabeyliklar, misrliklar, efiopiyaliklar, suriyaliklar, xellar, ossuriyaliklar va boshqalar ko'p marotaba tilga olinadi. Ko'rinish turibdiki, yahudiylar bu xalqlar haqida ko'proq bilganlar. Yahudiylarga ma'lum bo'lgan xalqlarni ular "katta suv toshqini" dan omon qolgan Nuh va uning o'g'illari, yagona ajdoddan tarqalgan avlodlar – deb hisoblashgan.

Injil xalqlarining genealogiyasi shunchaki ko'chmanchi qabilalarning qabila shajarasi emas, balki shu bilan birga yahudiy tarixining Falastin davridagi o'troq turmush tarziga va hayotning murakkab shakllariga o'tishi hamda madaniyatning umumiyligi rivojlanishidir. Ushbu genealogik sxema butun insoniyatni qamrab oladigan darajada kengaytirildi va umumlashtirildi.

Geneologik sxemaga ko'ra, hamma odamlar bitta ajdodning avlodlari, ularning hammasi umumiyligi ajdodlardan, suv toshqinidan keyin qolgan yagona odamlardan tarqagan. Inson irqining birligi va odamlar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri qarindoshlik va nasl-nasab aloqalari haqidagi nazariya bilan, ya'ni monoteizm diniy g'oyasi – yagona Xudo butun dunyo va hamma odamlarning yaratuvchisidir, degan g'oya bilan to'ldirildi. Olimlarning fikricha, Injil tarixda birinchi bo'lib, xalqlarning

¹ Токарев С.А. Истоки этнографической науки (До середины XIX в.) - Москва: Наука, 1978. – С. 9

genealogiyasi haqidagi keng tarqalgan etnografik konsepsiyadir. Dunyo xalqlarining kelib chiqishi haqidagi Injil g‘oyalari keyinchalik nasroniylik mafkurasiga qo‘silib, Yevropa tarixshunosligiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi va o‘rta asrlarning oxirigacha, vaqtı-vaqtı bilan, turli xalqlarning kelib chiqishini Injildagi Nuh payg‘ambarning o‘g‘illari bilan bog‘lashga urinishlar bo‘lgan’¹.

Qadimgi Yunoniston. Qadimgi Yunonistonda etnografik bilimlarning rivojlanishi yunonlarning boshqa mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalari kengayishi bilan bog‘liq. Yunon koloniylarining O‘rtaer dengiz va Qora dengizi hududi bo‘ylab tarqalishi natijasida, bu bilimlar kengayib va takomillashib borgan.

Yunonistonda etnografik bilimlar shakllanishida muhim o‘rin tutgan olimlar sifatida Gesiod, Gomerlarni ko‘rsatish mumkin. Gesiod (mil. av. IX asr oxiri) poemalarida efioplар, liviyaliklar, “sut sog‘uvchilar” – skiflar, Misr aholisi pigmeylar va “qora yuzlilar”, muqaddas podshohlar tomonidan boshqariluvchi “odam-itlar” haqida ma’lumot beradi. Gesiod ilk bora “lotin” va “tirren” (etrusk) kabi etnonimlarni ishlataladi: “podsho Lotin – mashhur Tirrenlar ustidan podshohlik qilgan”. Yunonlarning atrof olam va boshqa xalqlarga oid “etnografik bilimlari” o‘sha davrda juda mavhum edi.

Gomer (taxminan mil. av. VIII asrlar) o‘zining “Iliada” va “Odisseya” dostonlari bilan butun dunyoga tanilgan. “Iliada” va “Odisseya” yunon adabiyotining dastlabki yodgorliklari hisoblanadi va odatda aksariyat olimlar uning davrini mil. av. IX asrni, boshqalari esa mil. av. VIII asrni ko‘rsatishadi.

Mil. av. VII-V asrlarda qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining inqirozi, shaharlardagi ichki ijtimoiy kurash, savdo munosabatlarining o‘sishi yunonlar uchun chegaralarining ulkan hudud bo‘ylab kengayishiga olib keldi. Yunon mustamlakalari O‘rtayer dengizi va Qora dengiz sohillarini, Ispaniya va Fransiya sohillaridan Tavrida va Kavkazgacha qamrab olgan. Savdo va madaniy aloqalar nafaqat yunon mustamlakachi shaharlari o‘rtasida saqlanib qoldi, balki ular Ginterlandning “varvar” xalqlari bilan bog‘liq edi.

¹ Токарев С.А. Истоки этнографической науки (До середины XIX в.) - Москва: Наука, 1978. – С. 9

Yangi sharoitlar etnografik dunyoqarashning kengayishiga, atrofdagilar va olis xalqlar haqidagi bilimlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.

Gannon – karfagenlik dengiz sayohatchisi bo'lib, mil. av. V asrdayoq Afrikaning g'arbiy sohillariga oid tavsifnomasi qoldirgan ilk yunon sayohatchisi va olimidir “Gannonning dengizlar bo'ylab sayohati” kitobida xalqlar haqida g'aroyib ma'lumotlar keltirgan¹.

Milet tarix maktabining mil. av. VI asrda o'tgan vakillaridan biri Gekatey bo'lib, u o'zining “Yer kurrasining tasviri” asarining Osiyoga bag'ishlangan qismida xorasmiylar haqida birinchi bor ma'lumotlar bergen. Bu haqda Afiney, Stepan va boshqalar ham yozishgan. Gekatey Osiyon tasvirlab shunday deydi: "... parfiyaliklarning sharqida tekisliklar va tog'larni ishg'ol qilgan xorasmiylar yashaydi. U tog'larda yovvoyi daraxtlar, tol, yulg'un, tikanlik o'simlik o'sadi”.

Bu davrda yunonlarning boshqa xalqlar haqidagi eng mufassal ma'lumot beruvchi mashhur asar – bu (mil. av. V) Gerodotning “Tarix” asaridir.

Gerodot (mil. av. 484-425 yillar oralig'ida yashagan) Kichik Osiyo shaharlari, Bobil, Finikiya, Kipr oroli, Makedoniya, Markaziy Gretsiya (Afina), Qora dengiz sohillari, Egey dengizi orollari, umuman qadimgi dunyo mamlakatlari va shaharlarining ko'pchiligidagi bo'lgan. U o'zining o'n yillik sayohati davomida (mil. av. 455-445) Liviya, Misr, Ossuriya, Bobil, Ekatanda bo'lib, to'plagan barcha materiallari asosida 9 jildli “Tarix” asarini yozgan. Gerodotning O'rta Osiyo xalqlari tarixi haqidagi ma'lumotlari “Tarix” asarining I, III, VII, IX jildlarida bayon etilgan. Ushbu asarda barcha vogeliklar o'zining yurti bo'lmish – Afina siyosati nuqtai nazaridan baholangan². Asarda Yevropa va Osiyo, Yunoniston va Eron mamlakatalari hududlarida olib borilgan jangu-jadallar hikoya qilinadi.

Gerodotning “Tarix” asarida sak (skif), massaget, xorasmiy va Xorazm, issedon va day, farf va margush, sug'd va parkanaliklar kabi O'rta Osiyoda qadimga yashagan o'troq va ko'chmanchi xalqlari haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan. U Kirning massagetlar ustiga yurishi va halokati sabablarini yoritadi. Skif xalqlari haqidagi ma'lumotlar “Tarix” kitobining

¹ Гамон Карфагенинн Мореплаватеъ // <http://www.seapace.ru/seafarers/pioneers/266.html> (6.5.22)

² O'rta Osiyoning qadimgi aholisi haqida yunon-rim mualliflari // <https://e-tarix.uz/vatan-tarixi/711-maqola.html> (4.05.2021)

4-jildida beriladi. U Sharq xalqlarini “varvar” deb qaramaydi. Uning uchun Sharq insoniyat madaniyati, donishmandlikning o‘chog‘idir va geometriya, quyosh soati, ko‘p qonunlar, qurollar, yozuv madaniyati kabilar aynan Sharqdan kirib kelgan edi.

Gerodot hech qachon O‘rta Osiyo viloyatlari va shaharlarida bo‘lмаган. Shuning uchun uning O‘rta Osiyon tarixiy geografiyasi haqidagi ma’lumotlari ilmiy izlanishlarni talab qiladi.

Gerodot Baqtriya davlatiga oid ko‘p ma’lumotlarni beradi. U Kir II ning bosqinchilik urushlariga “misrliklar, bobilliklar, Baqtriya ahclisi, saklar g‘ov bo‘lgan” – deb yozadi. Gerodot ma’lumotlarida berilgan “Baqtriya xalqi” tushunchasi ma’lum bir etnik birlikni anglatadi. Xalq ma’nosini beruvchi “etnos” so‘zi Gerodotning “Tarix”ida ko‘p uchraydi.

Gerodotning yozishicha, Doro I Ahamoniylar davlatini 20 ta satrapliklarga bo‘lib boshqargan. Shundan 3 tasi O‘rta Osiyo hududlari bilan bog‘liq joylardir¹. Gerodot ajdodlarimizning etnik tarkibi, ularni kiyim-boshi, harbiy qurollari haqida ham ma’lumotlar beradi, ya’ni “baqtriyaliklarning boshlariga kiygan qalpoqlari midiyaliklarnikiga juda o‘xshagan, ular qamishdan yasalgan o‘q va kalta nayzalar bilan qurollanganlar. Saklar (skif qabilasi) uzun cho‘qqili qalpoqlar kiygan. Ular keng shalvar kiyganlar, sak kamон va xanjarlar bilan qurollanganlar. Kaspiylar va parikaniylar ham xuddi piyoda askarlardek qurollangan edilar. Arablar ham xuddi piyoda askarlardek qurollangan edilar, ammo ularning barchasi tuyalarda shunday tez chopar edilarki, ular tez yurishda sipohiylardan qolishmas edilar”².

Gerodot O‘rta Osyoning qadimgi xalqlari haqidagi hikoyalarini aynan massagetlardan boshlaydi: “Kir ko‘p xalqlarni o‘ziga tobe qilgandan so‘ng, – deydi Gerodot – massagetlarni istilo qilish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan. Bu massagetlar, aytishlaricha, jasur va behisob qabiladir. .. Massagetlar gulxan atrofiga yig‘ilishib, pishgan meva va o‘simliklarni olovga otadilar. Ulardan chiqqan hiddan, ellinlar vino ichib mast bo‘lganlaridek, kayf qiladilar. Olovga qancha ko‘p meva tashlansa, undan

¹ O‘rta Osyoning qadimgi aholisi haqida yunon-rim mualliflari // <https://e-tarix.uz/vatan-tarixi/711-maqola.html> (4.05.2021)

² O‘rta Osyoning qadimgi aholisi haqida yunon-rim mualliflari // <https://e-tarix.uz/vatan-tarixi/711-maqola.html> (4.05.2021)

chiqadigan hid ko‘payib, sarxush bo‘ladilar. So‘ng o‘rinlaridan turib, o‘ynashadilar, ashula aytishadilar. ..

“Massagetlarning kiyim-kechaklari skiflarnikiga o‘xshaydi va turmush tarzi ham o‘xshash. Ular otda va piyoda yuradilar. Odatda, ularning qurollari kamon, nayza va jangavor oyboltalardan iborat. Ularning hamma narsalari oltin va misdan ishlangan. Ammo, barcha sanchiq, o‘q va harbiy boltalarning metall qismi misdan (bronzadan) ishlangan, bosh kiyimlari, bel kamari oltin bilan naqshlangan. Ular otlarining egar-jabduqlarini ham ust-boshlari kabi oltin bilan bezatadilar. Temir va kumushdan yasalgan buyumlar ularning ro‘zg‘orida ishlatilmaydi, chunki bu metallar massagetlarning yerlarida umuman uchramaydi. Ammo, ularda oltin va mis juda ko‘p”.

Massagetlar bug‘doy ekmaydilar, chorvachilik va baliqchilik bilan shug‘ullanadilar (Araksda baliq keragidan ortiq) hamda sut ichadilar. Massagetlarda ulug‘langan yagona xudo – bu Quyoshdir. Quyoshga ular otni qurbanlik qiladilar, chunki xudoga dunyodagi eng chaqqon – tez chopar jonliqni qurban qilish lozim deb o‘ylaydilar”¹.

Gerodotning tarixiy an’analalarini davom ettirgan boshqa bir yunon tarixchisi Kichik Osiyodagi Knid shahridan chiqqan Ktesiydir. U mil. av. V asr oxiri va IV asrning birinchi yarmida ahamoniylar saroyida shoh Artakserksning shaxsiy tabibi sifatida 17 yil xizmat qilgan. Qadimgi yunon afsonalari ta’sirida tarbiyalangan Ktesiy podsho saroyida Sharq xalqlari dostonlari va tarixi bilan juda qiziqqan. Shuning uchun ham u qadimgi Sharq davlatlari, shaharlari va xalqlari haqida talay ma’lumotlar to‘plab, “Hindiston tasviri”, “Persika”, “Osiyo solig‘i haqida”, “Yer tasviri”, “Tog‘ haqida”, “Daryolar haqida” kabi asarlarni yozgan. Ammo, ularning birontasi ham bizgacha to‘liq saqlanib qolmagan, keyingi davr muarixlari bayonida, ayniqsa, Diodorda keltirilgan parchalarda saqlangan. Ktesiy ayniqsa, Hindiston va Baqtriya tarixiga tegishli ma’lumotlarga alohida e’tibor beradi.

Ko‘p tadqiqotchilar tomonidan shubha ostiga olingan Ktesiy ma’lumotlari arxeologiya tadqiqotlarida o‘z tasdig‘ini topmoqda. Hozirgi kunda Baqtriya tuprog‘ida mil. av. I ming yillikning birinchi yarmiga oid

¹ O‘rtta Osiyoning qadimgi aholisi haqida yunon-rim mualliflari// <https://e-tarix.uz/vatan-tarixi/711-maqola.html> (15.06.2022)

250 ga yaqin qishloq-qo‘rg‘onlar, qal’alar va shahar qoldiqlari o‘rganilgan. Birgina Surxon vohasida joylashgan ko‘p manzilgohlarni misol keltirish mumkin.

Yunon olimi *Pifey* mil. av. IV asr oxirida Atlantika okeanini suzib, Britaniya orollariga tashrif buyurdi. Taxminlarga ko‘ra, u “Britaniya” va “Albion” asarlarining muallifi bo‘lgan. Keyin Pifey Yevropaning g‘arbiy qirg‘oqlari bo‘ylab yurib, Skandinaviya yarim oroliga etib keldi va bu hududlarning tabiatini va aholisi haqida birinchi ma’lumotni berdi.

Mil. av. 329 yilda makedoniyalik Aleksandrning Baqtriya va Sug‘diyona yerlariga harbiy yurishlarida, uning qo‘s Shinida bo‘lajak tarixchilar Ptolemey, Aristotel, Onesikrit, Kallisfen va Xaresslar xizmat qilib, turli xil siyosiy va madaniy voqealarni qayd etganlar. Ammo, bu ma’lumotlar ularning o‘zlari tomonidan yozilgan maxsus asar sifatida bizgacha etib kelmagan. Ushbu ma’lumotlardan so‘nggi davr yunon tarixchilari va geograflari keng foydalanganlar. Masalan, *Diodor* (mil. av. 90-21 yillar) “Tarixiy kutubxona”, Strabon (mil. av. 64-24 yillar) “Geografiya”, Pompey Trog (mil. av. I milodiy I asr) “Filipp tarixi” asarlarini, Plutarx (milodiy 46-127 yillar), Klavdiy Ptolemylar (milodiy II asr) o‘z hikoyalari, Pliniy (milodiy I asr) “Tabiiy tarix” nomli kitobini yaratdilar.

Strabon mashhur “Geografiya” asarida O‘rtta Osiyoning aholisi urf-odatlari, shaharlari va daryolari haqida ma’lumotlar beradi: “Oldingi zamonalarda baqtriyalar va sug‘diylarning turmush tarzi va urf-odatlari ko‘chmarchilarning turmush tarzidan ko‘p farq qilmagan, ammo baqtriyaliklarning an‘anaviy madaniyati ancha yuqori bo‘lgan. .. Orollarda yashovchi massagetlar, ekin-tikinlari bo‘lmanidan ildiz va meva-cheva bilan ovqatlanadilar. Kiyimlari daraxt po‘stlog‘idan tayyorlaganlar, daraxt mevasini siqib, sharbalini ichadilar. Botqoqlikda yashovchilarining emagi baliq, kiyimlari – dengizdan chiqib keluvchi tyulenlarning terisidan. Tog‘da yashovchilari yovvoyi meva daraxtlarini eydilar, sirasini aytganda bularning ozgina qo‘ylari bor, biroq suti va junini olgani uchun ularni so‘yishmaydi. Kiyimlari o‘simlik shirasi bilan bo‘yalib, rang-barang va bo‘yog‘i uzoq saqlanadi¹.

¹ O‘rtta Osiyoning qadimgi aholisi haqida yunon-rim mualliflari // <https://e-tarix.uz/vatar-tarixi/711-maqola.html> (15.06.2022)

“Massagetlar va saklar tarkibiga shuningdek, atasiy va xorasmiylar ham kiradilar... Eratosfenning gaplariga qaraganda, araxot bilan massagetlar baqtriyaliklarga yaqinrokda, ularning g‘arbrog‘iga qarab Oks daryosi bo‘ylarida yashaydilar. Sak bilan sug‘dlar o‘zlari egallagan tekislikning hamma chegarasi bilan, baqtriyaliklar esa yerlarining bir qismi bilan Hindistonga yuzma-yuz turadilar. Baqtriyaliklarning ko‘p qismi Parapamizga yaqin istiqomatdalar. Saklarni sug‘dlardan Yaksart (Sirdaryo); sug‘dlarni baqtriyaliklardan esa Oks (Amudaryo) ajratib turadi”.

Diodorning “Kutubxona” asarida Hindiston chegaralarida yashovchi skiflar haqida, ularning uncha katta bo‘lмаган makonda yashaganlari, biroq, keyinchalik o‘zlarining qo‘rqmas va jasurliklariga tayanib, katta shuxratga ega jangovar xalqqa aylangani va skiflar Arake bo‘ylaridagi yerlarda yashab, unchalik ko‘p bo‘lмагани, ammo ularning shoxlaridan biri tog‘li joylardan Kavkazgacha, tekislikda esa Meotiya ko‘ligacha (Azov dengizi), Tanaidgacha (Don daryosi) bo‘lgan yerlarni egallagani, so‘ng skiflar Frakiya, Misrda esa Nilgacha, Kaspiy va Meotiya ko‘ligacha etib borganlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Makedoniyalik Aleksandar harbiy yurishlari haqida keng va to‘liq ma’lumotlar rimlik Kvint Kurtsiy Ruf (mil. av. I asrning oxiri – milodiy I asr o‘rtalari) va yunon Arrian (milodiy 90/95-175 yillar) asarlarida bizgacha etib kelgan. Arrian “Aleksandarning harbiy yurishlari”, Kvint Kurtsiy Ruf esa “Makedoniyalik Aleksandar tarixi” asarlarini yaratgan.

Kurtsiy Ruf o‘z asarida Baqtriya kabi Sug‘diyona haqida ham ma’lumotlar qoldirgan. Kurtsiy Ruf “Aleksandar Spitamen bilan uch yil davom etgan mashaqqatli urushda g‘olib chiqqach, qo‘zg‘olonchilarni jazolash uchun ularni tirik qolgan etakchilarini talab qiladi”, – deb yozadi. Shunda “sug‘diylar asirlardan podshoga 30 ta kuchli erlarni olib keladilar, ular podsho buyrug‘iga binoan o‘lim jazosiga berilishini eshitib, mag‘rur holatda g‘oyat xursand bo‘lishib kuylaydilar”. “Podsho ularning mardligidan ajablanib, ortga qaytarishga buyruq beradi va o‘lim oldidan ularning shodlanish sabablarini surishtiradi. Ular aytadilarki, agar ular o‘zlariga boshqa birov o‘lim jazosini berganda, qayg‘ulanib o‘lardilar, ammo o‘z ajodolarining yoniga ularni hamma qabilalar ustidan g‘olib chiqqan ulug‘ podsho yuborganligidan xursand bo‘lishib, o‘z jonajon

qo'shiqlarini aytdilar va butun jasurlar orzusi bo'lgan faxrli o'limni bayram qildilar" deb javob qilgan ekanlar.

Rim imperiyasi davri. Rim imperiyasi davri ko'p jihatdan, shu jumladan, etnografik bilimlar bo'yicha ham yunon davrining davomchisi bo'ldi. Ularning xarakteri umuman o'zgarmadi, balki Yevropa qit'asi xalqlari haqidagi muhim ma'lumotlar bilan to'ldirildi. O'sha davrda Yevropaning kelt va german xalqlari to'g'risida noyob ma'lumotlar orasida "Gal urushi to'g'risida eslatmalar"ni yozgan Gay Yuliy Sezar va "Germaniya" asarini yaratgan Kornel Tatsit bor edi. Ikkala muallifning asarlarida ham eramiz boshida Yevropa qit'asida yashagan qabilalar haqida ko'plab faktlar mavjud. Ularning ma'lumotlari juda ishonchli va aniq. Ushbu ma'lumotlardan ko'rindiki, o'sha paytda Yevropa xalqlari orasida mavjud bo'lgan urf-odat va udumlarning ko'pchiligi keyinchalik yo'q bo'lib ketgan yoki sezilarli o'zgarishlarga uchragan.

Rim davrida yaratilgan umumlashtiruvchi xarakterdagi muhim asarlar orasida Amian Marcellinusning 18 kitobdan iborat, mil. av. IV asrning oxirida tugatilgan "Tarix" asarini qayd etish mumkin. Muallifning o'zi shaxsiy kuzatuvlar va boshqa odamlarning materiallaridan foydalaniib, Buyuk Britaniya, Frakiya, Kavkaz, Fors, Arabiston va boshqa xalqlarining tafsiflarini bergan.

Shunday qilib, etnografik bilimlarni to'plashda antik davrning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar bo'ldi:

- mualliflar boshqalardan olingen ma'lumotlar bilan birgalikda shaxsiy kuzatuvlar asosida yaratilgan, tafsiflovchi xarakterdagi yirik hikoyaviy asarlarning ustunligi;
- taqdim etilgan, ayniqsa, boshqa manbalardan olingen ma'lumotlarni talqin qilishda tanqidiy tahlilning yo'qligi;
- empirik materialga asoslangan birinchi ilmiy tushunchalarining paydo bo'lishi.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. Antropologiyaning predmeti nima?
2. Antropologiyani to'rt bo'limi: madaniy, arxeologik, biologik va lingvistik antropologiyaning farqli jihatlarini aniqlang.

17	2024/122 55	O'zMU AXBOROT-RESURS MARKAZI
----	----------------	------------------------------------

3. Etnologiya xalqlarni qay jihatlarini o'rganadi?
4. Ilk etnologik va antropologik ma'lumotlar bizga qanday etib kelgan.
5. Qadimgi Mesopotamiya yodgorliklarida qanday xalqlar haqida ma'lumotlar berilgan?
6. Injil kitoblarida xalqlar haqida qanday ma'lumotlar berilgan?
7. Rim imperiyasi davrida etnografik bilimlarning o'ziga xosligi qanday edi.
8. Etnografik bilimlarni to'plashda antik davrning o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

Mavzu yuzasidan kazus savollariga javob bering !

1-Kazus

Ma'ruzada madaniyat insonlarning e'tiqodi, urf-odatlari va marosimlari, xulq-atvorlarini anglagan holda saqlanib qolishidir – deb ta'rif berildi. Aytingchi o'zbek xalqi misolida shu fikrni qanday asoslaysiz, bu haqida qo'shimchi fikrlaringizni bildiring.

2-Kazus

Ayrim ensiklopediyalarda – “Antropologiya - odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasi, odamzod irqlarining paydo bo'lishi, odamning tana tuzilishidagi normal farq-tafovut, o'zgaruvchanlik haqidagi fan” – deb ta'rif berilgan. Siz bu ta'rifni qay darajada to'g'ri, deb bilasiz va qanday ta'rif hozirgi zamонавиу antropologiya tushunchasini to'g'ri ifodalashi mumkin?

3-Kazus

Qo'llanmada bugungi etnologiyaning dolzarb masalalari sifatida:

- xalqlarni kelib chiqish yoki ularning etnogenezi; xalqlarning taraqqiyot tarixi yoki etnik tarixi; etnoslar moddiy va ma'naviy madaniyatining (qishloqlar, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar, taomlar, xalq og'zaki ijodi yoki folklor, xalq san'ati) o'ziga xos xususiyatlari; dunyo dinlari va diniy tasavvurlar, udumlar, urf-odatlар, marosimlar, bayramlar va h., – deb ko'rsatilgan. Siz bu ro'yxatni davom ettiring

4- Kazus

Etnografik bilimlarni to'plashda antik davrning o'ziga xos xususiyatlari sifatida:

- mualliflar boshqalardan olingen ma'lumotlar bilan birgalikda shaxsiy kuzatuvlar asosida yaratilgan, tavsiflovchi xarakterdagi yirik hikoyaviy asarlarning ustunligi;
- taqdim etilgan, ayniqsa, boshqa manbalardan olingen ma'lumotlarni talqin qilishda tanqidiy tahlilning yo'qligi;
- empirik materialga asoslangan birinchi ilmiy tushunchalarning paydo bo'lishi, ko'rsatilgan. Siz buning sabablarini izohlang.

Mavzu uchun testlar

1. Antropologiyaning sohalarini ko'rsating:

- A) madaniy, ijtimoiy, arxeologik, biologik, lingvistik, psixologik, pedagogik, tibbiy, kognitiv antropologiya va boshqalar.
- B) ijtimoiy-madaniy, arxeologik, biologik va lingvistik antropologiya.
- V) Asosiy yo'nalishlar: ilmiy va amaliy
- G) Barchasi to'g'ri

2. Etnologiya nimani o'rghanadi?

- A) Etnologiya xalqlarning o'rghanuvchi fan.
- B) Etnologiya XIX asrda shakllangan faqat antiqa xalqlar, qadimgi, arxaik jamiyatlar, taraqqiyoti jihatidan orqada qolgan etnik jamoalarni o'rghanuvchi fan.
- V) Etnologiya faqat yuksak rivojlangan millatlarni o'rghanadigan fan.
- G) Xalqlarning o'tmishini o'rghanadigan fan.

3. Etnologiyaning dolzarb masalalarini ko'rsating.

- A) xalqlarning etnogenezi va etnik tarixi
- B) etnoslar moddiy va ma'naviy o'ziga xos xususiyatlari.
- V) dunyo dirlari va diniy tasavvurlar, udumlar, urf-odatlar, marosimlar, bayramlari.
- G) Barchasi to'g'ri.

4. "Etnologik va antropologik tafakkur tarixi" fanining predmeti nima?

- A) Dunyo xalqlarini o'rghanish bo'yicha olib borilgan etnologik va antropologik tadqiqotlar va shu bo'yicha ilgari surilgan nazariya, konsepsiylar.